

MUSIQA MADANIYATINI INSON HAYOTIDA SHAKLLANISH VA O'RGANISH BOSQICHLARI

Madaminova Masturabonu Jalolxon qizi

Toshkent Shahar Yashnobot tumani 313-sonli umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilot
musiqa rahbari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17141626>

Annatsiya. Ushbu maqolada siz, musiqa madaniyati inson hayotida shakllanish jarayonlari va o'rganish bosqichlari bilan nazariy taraflama tanishasiz. Qadriyatlarimiz asosiga qurilayotgan zamonaviy ta'lim dasturlar uchun musiqa madaniyatining ahamiyati to'g'risida fikr va mulohazalar olib boriladi. O'sib ulg'ayayotgan yoshlarimizda ta'lim-tarbiya, musiqiy did, estetik qarashlar, ruhiy barkamollikni to'g'ri tarbiyalash va rivojlantirish, bundan unumli foydalanish to'g'risidagi fikrlarim bilan tanishasiz. Musiqiy muhitning inson ruhiyati, tafakkur olamidagi o'rni xaqida turli fikrlarni birgalikda taxlil qilamiz. Mehnat faoliyatim davomida yuzaga kelgan fikr, mulohazalarim, musiqiy madaniyatning turli tadqiqot na'munalari bilan bo'lishib o'taman.

Kalit so'zlar: Onalik-bolalik, alla, musiqiy muhit, sevimli mashg'ulot, musiqiy madaniyat, ruhiy barkamollik, Vatan tuyg'usi va Milliy g'oya.

Kirish qismi:

**Sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish –
bu omadli hayotga yo'l demakdir.**

Djuliana Vilson

*Musiqa-inson hayotida muhim ahamiyatga ega, ruhiy barkamollik,
yetuk tafakkurning rivojlanishi uchun muhim unsurdur.*

Musiqa madaniyati bu – inson ruhiy olamining tafakkuri va jismoniy xarakter qismlarining, his-hayajon va tuyg'ular orqali beixtiyor uzluksiz faoliyatidir.

Musiqiy muhit faqatgina raqsga tushish, ashula, qo'shiq tinglash, hirgoya etish, sahnaviy dasturlar tomosha qilish yokida tashkil etishgina emas. Musiqa san'ati orqali, biz o'sib ulg'ayayotgan yoshlarga milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, bolalik quvonchi bilan bir qatorda kelajak orzusining eng yorqin milliy tafakkurini singdiramiz. Musiqa madaniyati bu nafaqat ko'ngil ochar musiqiy muhit, balkida xalqimizning ozodlik, xurlik, bugungi kundan mamnunlik na'munasi bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy san'at turlarini olganda musiqa san'ati inson ruhiy tabiatiga o'zga-cha ta'sir ko'rsatadi. Bu xaqda olimlar turli tadqiqot nazariyasidan kelib chiqib aytadilarki, bolalik davrida musiqa san'ati bilan shug'ullangan insonlar kelajakda buyuk shaxslar bo'lib yetishib chiqadilar deb turli misollar keltirishgan. Ulardan Iosef Stalin bolalik davrida skripka chalishga qiziqqan va cherkov xorlarini tinglash uchun muntazam borib turgan, o'z tariximizga yuzlansak adabiyot va siyosat, turli soha vakillari shu jumladan jadidchilik xarakati a'zolari ham shoirlar-u sozandalar bilan musiqiy kechalar tashkillashgan ekan. Oldingi davr va hozirgi davrni solishtirsak, musiqa san'ati orqali insonlarning diniy qarashlarini kengaytirish maqsadida xam foydalanishgan bunga misol, Barokko davri musiqalarida cherkov targ'iboti kuchli bo'lgan bunga misol I.S.Bax,

A.Vivaldi, G.F.Gendel asarlari yaqqol misol bo'la oladi. Klassitizm davri musiqalarida sahnalashtirish, ommaviylashtirish jarayonlari keng targ'ib qilinadi Y.Gaydin, V.A.Motsart, L.Betxoven kabi kompozitorlarning yengil o'ynoqi asarlari na'muna bo'ladi. Romantizm davri inqilobiy hisoblanib F.Shubert, F.Shopen,kabi kompozitorlar o'z asarlarida so'z bilan namoyon bo'lmagan ruhiy kechinmalarini musiqiy tovushlarda ifoda etganlar. Bundan tashqari Impressoinizm davri yangilanish sifatida namoyon bo'lib, keyinchalik New Klassika davrini boshlab beradi. Musiqa tarixiga yuzlansak bir maqola yoki bir kitob yetmaydi. Musiqa madaniyati yil asrlar sari shakllanib keladi u to'xtamaydi, tugab qolmaydi yangi qism, asar, yangi davrni boshlayveradi.

Hozirgi davr musiqalari ham rivojlanish, sayqallanish jarayonlaridan o'tib bormoqda.

Musiqa madaniyat asrlar osha insoniyat ruhiyatining kerakli ozuqaviy unsurlaridan biri bo'lib kelgan. Insoniyat ruhiyatiga bog'liq jarayonlarini yanada chuqurroq muloxaza qilsak, hozirda relaks darajasida etirof etilgan bir nechta asarlar mavjud. Ruhiy olamning ma'lum darajada tinchlik, xotirjamlikga erishishi, ba'zilar orqali mudragan tuyg'ularni uyg'otishga undovchi musiqalar ham kam emas. Musiqa orqali meditsina soxasi vakillari, ruhiy omillar bilan zo'riqgan bemorlarga psixolog ko'rigida relaks musiqalar orqali turli terapiyalarda qatnashishlarini, logopetik nuqsonlari bor, nafas olishda muammoga duch keladigan bemorlarga xam aynan musiqiy mashg'ulotlar tavsiya etadilar. Misol tariqasida yana bir fikrni keltisak:

“Insonning ruhiy va jismoniy xolati ko'p xollarda uning bolaligi bilan chambar-chas bog'liqdir. Yillar o'tishi bilan biz buni yanada teran anglaymiz. Bolalikdan boshlab biz, otalalarimiz hayoti, ularning va atrofimizdagi insonlarning bizga nisbatan bo'lgan munosabatlari, turli ko'rinishdagi cheklovlar, ayriliqlar, kasal-liklar hayotimizga ta'sir o'tkazmay qolmaydi.”

“Tafakkur va go'zal chexra sari yana bir qadam” (Psixologik trening to'plami) Xalilova Gulnora

Albatta bu fikrlar o'z tadqiqot natijalariga erishilgan va siz mushtariylarga yetka-zilgan.

Asosiy qism: Yuqorida o'tilganidek, musiqa madaniyati bir necha bosqichlar va ruhiykechinmalar orqali shakllanib boradi. O'rgatish jarayoni bu nafaqat qo'shiqlar, raqslar, sahna ko'rinishlarni bajarish va tomosha qilish bilan inson ruhiy tin olishiga erishadi. Musiqa madaniyati ijodiy fikrlash, estetik tarbiya, ruhiy barka-mollik, yurt madxi, muhabbat va insoniylikni anglash jarayonlari birgalikda kamol topadi. Shu sababdan musiqiy madaniyat rivojlanish jarayonlari yosh davrlariga bo'lib o'rganiladi. Bular ilk yosh, kichik yosh, o'rta yosh va katta yosh davrlariga bo'linadi. Ilk yosh davri: Alla, onalik, bolalik.

“Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi xosil bo'ladi”

“Tib qonunlari” Abu Ali ibn Sino

Aslini olib qaraganda, ilk yosh davri bu, musiqa va ruhiyat uchun bolaning ona vujudidaligidan hisoblanadi. Sababi shundaki, ona vujudida rivojlanayotgan bola, onaning his-hayajonlarini, og'riqlar ruhiy va jismoniy, tushunish, eshitish qobili-yatlarini birgalikda qabul qila boshlaydi.

Ochiqroq muloxaza qilsak, ona vujudidagi bolaning ilk xarakterlaridan anglash mumkin.

Meditsina sohasida zamonaviy apparatlar orqali bolaning tinch doimiy yoki notinch xarakterlari, onaning ruhiy yoki jismoniy zo'riqlashlarining natijasi ekanligini tasvirlar orqali malum qiladilar. Aynan ana shunday xolatlar bolaning ilk xis qilish qobiliyatini mujassam etadi.

Bola dunyoga kelgach esa bu jarayon tinglash qobiliyatini shakllantiradi. Ilk eshitgan allasi oxangiga orom olayotgan bolajon, o'zining xis qilish organlari, tinglash va turli qobiliyatlaridan foydalana boshlaydi. Alla bolalik va onalikning dunyo va ruhiyat olamiga ilk qadamlari kabi orzu, yorqin kelajak, baxt-omonlik tuyg'ulari bilan tanishishga undaydi. Musiqa madaniyati ayni onaning mayin ovozidan aytilgan alla tovushlariga quloq solib tinglagan jajji bolajonda ruhiy barkamollik sari, yorqin tiyran tafakkur sari quloqlari orqali kirib qalbining bir chetida una boshlaydi.

Kichik yosh davri, xis-xayajon, tinglash qobiliyatlariga to'laqonlik ega bo'lgan bola, endilikda musiqiy muhit bilan bevosita bog'lanadi. Musiqalar oxangini ajratib raqsga tusha boshlaydi yoki shunchaki tinglab tomosha qilishidan musiqiy muhit namoyon bo'ladi. Musiqiy muhit – asosan bolalar bog'chasida o'zaro tengdoshlari bilan vujudga keladi. “ILK QADAM” davlat dasturi asosida bolajonlar uchun musiqiy mashg'ulotlar tashkillanib, unda bolalar raqsga tushish, ko'ngil ochar o'yinlar va bayram tadbirlarda ishtirok uchun tayyorlanadilar. Shu mashg'ulotlar negizida musiqiy madaniyat vujudga keladi. Musiqiy madaniyatning na'munasi sifatida, bolalarning bayramlarda ketma-ket chiqib mashg'ulot davomida egallagan bilimlarini ilk sahnada namoyon eta olishlarida ko'riladi. Tashkillangan musiqiy muxitlarda bolalar musiqasiga katta e'tibor berishimiz va repertuarlar tanlashda bolalikning va yurt madxining eng go'zal na'munalaridan tanlash maqsadga muvofiqdir. Ish faoliytim jarayonida, ayrim tashkilotlarda tadbir repertuarlariga bolalik davriga mos musiqiy asarlar tanlab olinmaydi, bu esa o'sib ulg'ayayotgan bolalar ruhiy olamiga qattiq ta'sir ko'rsatadi, keyinchalik bu o'z isbotini ko'rsatadi va bolalarda erta katta bo'lish, salbiy fikrlash, ruhiy kechinmalari bilan bog'liq o'zgarishlarni qabul qilishga qiyinchiliklar tug'ula boshlaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa madaniyat rivojlanishi musiqiy muhitga bog'liqdir. Musiqiy muhit to'g'ri rivojlangan bolalarda ta'lim dasturlarini egallash jarayonida fikrni jamlash, tinglash, eslab qolish va takrorlash, ijodiy yondashuv, ijobiy kayfiyat kabi qobiliyatlarni mustaxkam egallashga o'rgatadi. Olgan bilimlarini to'g'ri yo'naltirishga undaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi musiqiy muhit bolalarga milliy qadriyatlarimizni musiqiy oxanglar orqali ilk “Vatan tuyg'usi”ni singdirishga yordam beradi. “Vatan tuyg'usi”ni va insoniylik madaniyatini o'zida shakllantirgan bolajonlarimiz maktabga qadam qo'yanlarida “Milliy g'oya”mizni qabul qilishlari, mazmunan tushunishlari, Vatanimiz ravnaqi uchun aziz va ardoqli ekanliklarini yanada chuqur anglaydilar.

O'rta yosh davri- bu maktab davriga to'g'ri keladi. Yuqoridagi ilk yosh davrida keltirilgan fikrlarga ko'ra bu davrni musiqiy fikrlashga urunib ko'ramiz. O'rta yosh davridagi bolalar endi o'zlari musiqiy uchun musiqiy muhitni istalgan vaqtda yarata oladilar. Bu o'zlariga yoqqan qo'shiqlarni doimiy tinglab, xirgoya qilib yuradilar, ba'zi bolalar musiqiy asboblarga qiziqib o'zlari uchun sevimli mashg'ulotga aylantirib oladilar. Rivojlanish jarayonidagi bolalar uchun endi ruhiy kechinmalar ham ahamiyatli o'rin egallaydi. Kirish qismida keltirganimizdek “*Sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish – bu omadli hayotga yo'l demakdir*” Djuliana Vilson, albatda bu fikr juda to'g'ri keltirilgan.

O'rta yoshdagi bolalar ba'zan o'zlari tushungan yoki tushunmagan xolatda mashg'ulot tanlashda ruhiy kechinmalaridan foydalanadilar. Musiqiy mashg'ulot jarayonida bola o'zining ichki tuyg'ularini, asli xarakterini, qiziqish, erkinlik turli ruhiy travmalarini, imkoniyatlarini biror musiqiy asbob, qo'shiq va sahnaviy xarakterlar ijrosida mujassamlaydilar. Bolada musiqiy madaniyat to'g'ri rivojlangan bo'lsa, bayram va tadbirlar mavzusiga, yosh davridan uzoqlashmagan xolda repertuarlarni mustaqil tanlab, uni estetik va ijodiy did bilan ijro etib beradilar.

Katta yosh davri- bu bevosita ruhiy olamning tilidir. Sanab o'tilgan xar muhitdan o'tib bo'lgach o'zi uchun kerakligi ajratib oladi va foydalana boshlaydi. Endilikda tafakkur ruhiyatning qismi bo'lib, musiqiy muhitda tarbiyaviy qoidalarga rioya qilib aytib bo'lmas so'zlarini musiqiy oxanglar bilan ifodalash, jismoniy xolatlarda raqsga tushish yoki tushmaslik, tinglashning yuqori darajasidan hayol surish va fikrlash bosqichiga o'tadilar. Ruhiy olam darajasi yuqoriga chiqib, mavzuga oid, yosh davri bilan bog'liq jarayondagi tanlovlar ikkinchi darajaga aylanadi. Misol uchun, kichik yoshimizda "ona" to'g'risidagi musiqalar ortiqcha his-hayajonga berilmasdan qabul qilingan bo'lsa, bu davrda "ona" mavzusidagi musiqalar yurakga yetib borib ba'zan ko'zga yosh keltiradi, faxr tuyg'usini uyg'otadi va uzoq o'yg'a tortadi. Inson ruhiyatining turli javxalirini namoyon etadi.

Musiqi ana shunday san'atki, u bilan tug'ulamiz, uning sadolari orqali dunyoni tark etamiz. Sababi inson ovoqidagi ilk musiqiy ijro bu yig'i jarayonida xosil bo'ladi. Musiqi madaniyat ruhan va jismonan davolovchi unsurdir. Ruhiy kechinmalarni tartibga solsa, jismoniy tarafama turli suyak kasalliklarini davolash maqsadida raqs tushish, logopetik nuqsonli bemorlarda va o'pka, nafas yo'li bilan og'rigan bemorlarga vokal darslariga qatnashish, bolalardagi ko'p uchraydigan nutq buzilishi jarayonlarida musiqiy mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanib yurush tavsiya etiladi. Ish davrim mobaynida logopetik va nutq buzulishi bilan og'rigan bolalar bilan vokal mashg'ulot olib borganimda, artikulyatsiya jarayonini mustahkamlash uchun raspevka mashhiqlarini turli qo'shiqlar bilan o'rgatardim. Bu orqali bolalar to'g'ri nafas olish va artikulyatsion jarayon to'g'ri shakllanish davrida zerikib qolmasliklariga yordam berardi. Mashg'ulotlardan so'ng bolalarda o'zgarishlar kuzatilgan, ular to'g'ri talaffuz bilan qo'shiqlar xirgoya etganlar. Nutqning ravonligi bevosita musiqiy madaniyat va estetikaga ham bog'liqdir. Nutqning ravonligi, fikrning aniq va barkamolligi ayni shu jarayonlarda ko'zga tashlanadi.

Musiqi inson hayotida ahamiyatli ekaniga ko'p marotaba guvoh bo'ldim, bulardan yana biri – Mehribonlik uyida tashkillangan musiqi mashg'ulotlari, mehribonlik uyi tadbirlar zalida bo'lib o'tardi. Ana shunday tadbirlar zalida tashkillangan musiqi mashg'uloti umumiy ta'lim maktablarida xam shu tarzda olib borilardi. Ikki jarayon bir xil bo'lishiga qaramasdan turli natija berardi. Mehribonlik uyidagi tarbiyalanuvchilar bu jarayonda, sahnaga chiqqanda ruhiy alamlarini unutib yangi shaxs sifatida namoyon bo'lardilar. Ular orasida ijro etgan musiqiy asarlarini "xali ko'rsatib qo'yaman" yana biri " bu xotiralarim uchun" deb turli nomlar bilan ruhiy azoblariga taskin berardilar. Umumiy maktablarda bolalar maqtanish va mashxur inson bo'lish kabi, ba'zi birlari oilaviy sharoiti tufayli musiqi maktablariga qatnasha olmagan uchun, tashkillangan musiqi mashg'ulotiga mamnunlik bilan qatnashar edilar.

-Bu turli qarashlar ortida ruhiyat uchun musiqa o'rnini, ta'sir bosqichlarini ravshan anglab olishimiz mumkin. Yana ta'lim jarayoniga qaytsak, maktabgacha yoshdagi bolalarda xam musiqa mashg'uloti asosiy faoliyat sifatida qaratiladi. Hozirgi kunda "ILK QADAM" davlat dasturining uchunchi nashri ishlab chiqildi, unda Singapur kabi davlatlar ta'lim tizimidagi dasturlardan biri STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) kiritildi. Bu metodda bolalar ijodkorligi rag'atlantirish bo'lib, san'atning qo'shilishi bilan, ijodkorlik, vizual fikrlash va estetik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi deb takidlab o'tilgan.

Hammamizga ma'lumki maktabgacha ta'limda mashg'ulotlar o'yin tarzida olib boriladi, bu dastur esa erishilgan natijalarga ega bolalardagi, musiqiy muhitda shakllangan ijodiy qobiliyatni yanada rivojlantiradi. Bu dasturni aytib o'tganimizning asosiy sababi shundaki ijodkorlik qobiliyati faqatgina san'at turlarida namoyon bo'la oladi xolos. Xulosa qismiga yetib kelar ekanmiz, san'at insonni to'g'ri fikrlashga undaydi, kimlar uchun dardiga shifo, yana kimlarga yo'l boshlovchi kuychidir. Sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanish inson ruhiyatining tinchlanishiga, tafakkur olami, fikrlashi, nutq jarayonlari, jismoniy xarakter qismlari to'liq sog'lom rivojlanadi.

Xulosa: Musiqa madaniyatini shakllantirish uni o'rgatish, o'qitish bosqichlarida yosh davrlariga ahamiyatli bo'lish, bolalar va kattalar musiqasini bir biriga aralashtirmasdan o'z o'rnida qo'llash tavsiya etiladi. Musiqiy madaniyat shakllanish jarayonining muhim roli bu bolalik tuyg'ulari bilan boy bo'lgan musiqiy muhitni to'g'ri tashkil etishdir. Bolalar musiqasini o'qitish, san'atdagi muhim jarayondir.

Bu jarayonda "ALLA" va "DAVLATIMIZ MADXIYA"sini to'liq va to'g'ri o'rgatishimiz darkor. Zero bolajonlarimiz yurtimiz madxini va quvnoq bolalik tuyg'ulari bilan ulg'ayishlariga zamin bo'la olsin. Hozirda ommaga taqdim qilinayotgan musiqiy oxanglarga e'tiborli bo'lishimiz, ulg'ayayotgan yoshlarimiz notog'ri tushuncha olmasliklari uchun xam musiqa madaniyatini to'g'ri targ'ib etishimiz lozim. Xalqimizning madaniyati, marifati, mafkuraviy tafakkuri ayni musiqa san'atida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kelajagimiz faxri bo'lgan yoshlarimiz, to'g'ri berilgan musiqiy madaniyat va estetik tarbiya orqali o'zbek musiqa madaniyatini keng ommaga na'munaviy ko'rsatishlariga zamin yaratishimiz darkor. "Berilgan to'g'ri ta'lim-tarbiya kelajagimiz ustunidir".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Sinoning alla to'g'risidagi fikri SHIFO.UZ saytidan
2. "Tafakkur va go'zal chexra sari yana bir qadam"
3. (Psixologik trening to'plami) Xalilova Gulnora
4. STEAM "ILK QADAM" davlat dasturi uchunchi nashr prezintatsiyasi.